

GAP SHAKLINING KENGAYISHI XUSUSIDA

R.Samandarov,

SamISI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada gap nutq birligi sifatida murakkab va ko‘p qirrali ekanligi, gapning darajalari, unung shaklining kengayishi kabi masalalar talqini berilgan. Shuningdek, gapning sintaktik shakli kengayishi derivasion jarayon doirasida vujudga kelishi va shu bois applikativ model qo‘llanilishini sintaktik derivasiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o‘rganishimiz ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gap, universal grammatika, freym, derivatsiya, pragmatika, funktsional-kommunikativ, applikativ model.

Ma’lumki, tilshunoslik fan sifatida uzoq vaqt dan beri klassik universal grammatikalar nazariyalarining rivojlanishiga turtki bergan mantiq ta’sirida bo‘lgan Tilning umumiyl tushunchasi V. fon Gumboldtning ishi tufayli sezilarli darajada o‘zgardi, u tilni o‘rganishga antropologik yondashuvni ilgari surdi, bu tilda inson omilining rolini o‘rganishni bиринчи o‘ringa qo‘ydi. Deyarli barcha zamonaviy tilshunoslik nazariyalari uning ishiga asoslangan bo‘lib, u inson hayotining umumiyl tamoyillariga, shu jumladan ma’naviy va lingvistik qobiliyatlarga bag‘ishlangan. Ko‘p yillar davomida jahon tilshunosligida gapni o‘rganishga mantiqiy, antropologik (psixologik) va rasmiy yondashuvlar rivojlandi va til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi masalasi falsafa, psixologiya, fiziologiya va tilshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, gap nutq birligi sifatida murakkab va ko‘p qirralidir. Shuni ta’kidlash kerakki, gapning aspektlari va sathlarini o‘rganish g‘oyasi XX asrning 30-yillarida tilshunos va adabiyotshunos V.G.Admoni tomonidan ilgari surilgan. Uning “grammatika nazariyasi asoslari” asari gaplarni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi [1]. Bunga katta hissa qo‘shgan tilshunoslar orasida H. Brinkmann, G. Helbig, A. V. Bondarko, O. I. Moskalskaya,

S. D. Katsnelson, B. A. Abramov, T. P. Lomtev, V. G. Gak, N. D. Arutyunova kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda gaplarni o‘rganishda uchta darajani ajratish odatiy holdir:

- 1) sintaktik yoki tarkibiy;
- 2) semantik yoki nominativ;
- 3) funktsional-kommunikativ yoki pragmatik.

Gapning struktur tomoniga kelsak, u jumla shakli, jumla modeli va jumla a’zolari kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Semantik jihat voqelikning ma’lum bir lahzasini ma’ruzachi va tinglovchi vaziyat haqida g‘oyani shakllanadir, o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan tarzda aqliy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Semantik tuzilishning markaziy belgisi predikatdir. Gapning funktsional-kommunikativ tomoni modal-kommunikativ yoki kommunikativ-pragmatik deb ham ataladi. Bu aloqa ishtirokchilari o‘rtasida rollarni taqsimlash, ularning voqeaga munosabati, xabarning maqsadi va bahosini o‘z ichiga olgan ma’lum bir nutq holatini anglatadi. Nutq aktini tavsiflovchi ushbu tomonlarni shveytsariyalik tilshunos Sh. Balli modus deb atagan [2].

Demak, bu muammoga mantiqiy qoidalar asosida yondashilganda formal - grammatik tamoyillar, formal - grammatik nuqtai nazardan yondashilganda, mantiqiy va psixologik masalalar talqini, sistem - struktur tamoyillarga tayanilganda esa mantiqiy - semantik masalalar ikkinchi darajali bo‘lib qolmoqda. Ammo shuni ham aytish kerakki, hozirgi paytgacha tilshunoslik muammolari tadqiqida, shu jumladan, gap sintaksisi masalalarini o‘rganishda ham Aristotel yashagan davrlarda keng iste’molga kiritilgan mantiqiy (falsafiy) qoidalar ustuvor ahamiyat kasb etib kelayotgani sir emas. Buning natijasida esa sof grammatik tamoyillardan chetlashish holati vujudga keldi. Boshqacha aytganda, biz tilshunoslik muammolari tadqiqiga mantiqiy yoxud psixologik nuqtai nazardan yondashib keldik va sof grammatik tamoyillar hamda ularga xos qoidalardan birmuncha chetlashib ketdik.

Masalan, gapning birgina sintaktik tahlilini oladigan bo‘lsak, bunda gap bo‘laklarini belgilash printsipiga tayanamiz. Ammo hozirgacha amal qilinib

kelayotgan gap bo‘laklariga asoslanuvchi sintaktik tahlil ham noto‘g‘ri yo‘nalishdadir. Chunki nutq lingvistikasi endigina ilmiy asoslanmoqda va shu bois uning qonun-qoidalari, tahlil usullari ham hali to‘liq ishlab chiqilmagan [3]. Boshqacha aytganda, nutq lingvistikasi to‘liq ilmiy asoslangandan keyingina, uning birliklari sintaktik tahlili usullari haqida so‘z yuritish mumkin bo‘ladi. Chunki gap hozirda supersintaktik butunlik sifatida talqin qilinmoqda [4;5]. Darhaqiqat, gap (jumla) so‘zlovchining nutqiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab sintaktik hodisadir. Ana shu bois Chex tilshunoslari gapni (uni jumla tushunchasi bilan mushtarak hodisa tarzida e’tirof etishganlari holda) supersintaktik sath birligi sifatida talqin qiladilar.

Sh.Turniyazova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, gap nutq birligi sifatida mustaqil qo‘llanilishi ham, matn komponenti tarzida kelishi ham mumkin. Biroq uning ma’no jihatlari matn tarkibida kelib, boshqa gaplar qurshovida bo‘lgandagina to‘liq namoyon bo‘ladi [6]. Gap nutq birligi sifatida mustaqil qo‘llanilganda, uning komponentlarini so‘zlar tashkil qiladi. Til sistemasining muhim birligi sanaluvchi so‘z esa gap shaklini kengaytiruvchi xususiyatga ega. Buni so‘zning nutqda qo‘llanilishida bevosita kuzata olamiz. Masalan, gapning sintaktik shaklini kengaytiruvchi vositalardan biri uyushiq bo‘laklarni olaylik. Bunday bo‘laklarni an'anaviy tadqiqot ishlarida ham gap shaklini kengaytiruvchi omil sifatida talqin etishadi. Masala tavsifiga kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, bu jarayonda uyushiq bo‘laklarda subfreym va turdosh freymlar faoliyat ko‘rsatayotganini anglash qiyin emas. Bu esa freym tushunchasi nafaqat gapning sintaktik strukturasi mazmuniy jihat bilan, balki uning shaklan kengayishi bilan ham aloqador ekanligidan dalolat beradi.

Freym deganda, albatta, inson ongida mavjud bo‘lgan tushuncha ifodasi bilan bog‘liq bilimlar to‘ri idrok etiladi. Sh.Safarov freym tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o‘taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida “freymlar to‘ri

to‘plami” mavjudkim, ushbu to‘plam bilim va idrok faoliyati ma'lum ko‘rinishdagi “Andoza”lar asosida amalga oshishini ta’minlaydi” [7] .

Ravshanki, an'anaviy tadqiqot ishlarida gapning sintaktik shakli kengayishi masalasi uyushiq va ajratilgan bo‘laklar vositasida ro‘y berishiga e’tibor qaratiladi.

Gapning sintaktik shakli kengayishi derivasion jarayon doirasida vujudga keladi va shu bois applikativ model qo‘llanilishini sintaktik derivasiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o‘rganamiz. Sintaktik derivasiya hodisasi, avval eslatib o‘tilganidek, asosan, ikki usul bilan - transformasion va gap shaklining kengayishi usullari bilan voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адмони, В.Г. Основы теории грамматики / В.Г. Адмони. – Л.: Наука, 1973. – 361 с.
2. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка / Ш. Балли. – М.: ИЛ, 1955. – 416 с
3. Turniyozov N. Gap bo‘laklari haqida ba'zi mulohazalar // xorijiy filologiya, 2004, № 4.
4. Лешка. Л. Иерархия ярусов строя языка и их перекрывание. Тезисы докл, прочитанного на советско-чехословацком симпозиуме на тему: «Еденицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие». - М., 1967.- С. 5;
5. Trnka B. On the linguistic sign and the multilevel organization of language. « Traraux linguistiques de Prague». – Prague, 1964.-C.38.
6. Turniyazova Sh. Hozirgi o‘zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. // Nomz. dis -. Toshkent, - 2010.
7. Nigmatovna, T. S. (2022). TEXT IS A HIGH-LEVEL SYNTACTIC UNIT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 263-269.
8. Nigmatovna, T. S. (2022). THE PROBLEM OF TEXT AND SYNTACTIC DERIVATION. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(4), 213-217.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006, 90 б.

